# Termiz shahrida viloyat ichki ishlar boshqarmasi xodimlari uchun yangi xonadonlar foydalanishga topshirildi



Termiz shahrida viloyat ichki ishlar boshqarmasi xodimlari uchun yangi xonadonlar foydalanishga topshirildi
Termiz shahrida viloyat ichki ishlar boshqarmasi xodimlari uchun qurib bitqazilgan yangi 15-ta xonadon, uzoq muddatli imtiyozli kredit asosida 2021 yil 21 aprel kuni o’z egalariga topshirilish marosimi tantanali tarzda tashkil etildi. Marosimda O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Bobojonov Po’lat Razzoqovich, Surxondaryo viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig’i, polkovnik Ismoilov Abduvohid Salomovich, Termiz shahar hokimligi, davlat va jamoat arboblari, OAV, Termiz shahar madaniyat bo’limi hamda IIB soha faxriylari ishtirok etishdi.
Tadbir davomida Termiz shahar madaniyat bo’limi ijodiy jamoasining ko’ngillarni xushlovchi taronalari yangrab, yangi xonadon vakillarini xushnud qildi. Tadbir yakunida xonadon kalitlari egalariga topshirilgach, ramziy lentalar qirqilib, tadbir

ishtirokchilari xonadonlarga tashrif buyurishib, yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanish imkoniga ega bo’lishdi.













